

**O‘ZBEK TILINI TARIXINI DAVRLASHTIRISHGA OID  
TURKOLOGIYADAGI QARASHLAR**

***Ramatova Zubayda Zarifboy qizi***

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek tili tarixini davrlashtirishga oid turkolog olimlarnining fikrlari va ularning bir biriga uyg‘un va farqli jihatlari atroflicha yoritib beriladi. Maqolada tilning shakllanish bosqichlarini har bir olim o‘z qarshlaridan kelib chiqqan holda tuzganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

**Kalit so`zlar:** “Devoni lug‘oti-t-turk”, “Qutadg‘u bilig”, chig‘atoy tili, o‘zbek tili tarixi, taraqqiyot bosqichlari.

Istagan xalq yoki millatning hozirgi nomidan ko‘ra uning etnik jihatdan shakllanishi ancha qadimi. Bu hodisani hozirgi rus, ingliz, nemis, fransuz kabi xalqlar tarixida ham ko‘rish mumkin. O‘zbek xalqining shakllanish va nomlanish tarixi masalasi ham xuddi shunday. Millat sifatida mavjud nom-o‘zbek etnonim(urug‘, qabila, elat, millat va h.k nomlar)ini rasmiy ravishda XX asrning boshlarida olgan bo‘lsada, hozirgi O‘zbekiston hududida o‘zbek millati etnik asosining shakllanishi uzoq asrlarga borib taqaladi. Shoir Erkin Vohidov:

Tarixingdur ming asrlar ichra pinhon, o‘zbegim,

Senga tengdosh Pomir-u oqsoch Tiyonshon, o`zbegim.

deb yozganida mubolag‘a yo‘q-o‘zbek xalqi asosining O‘zbekiston(va unga yaqin) hududlarda shakllanishi IX hamda undan oldingi asrlarga mansub .

O‘zbek tili o‘zining uzoq asrli tarixiy takomili davrida bir qancha bosqichlarni bosib o‘tgan. Tilimiz tarixining ilk bosqichi eng eski choglardan boshlab melodning V yuzyilliklariga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu bosqich shartli ravishda eng qadimgi turkiy til deb ataladi. Ilmiy asarlarda bu davrning ilk bosqichlari “oltoy”, keying bosqichi “xun davri” deb yuritiladi. Melodiy VI asrdan qadimgi turkiy adabiy til davri boshlanadi. Bu davr adabiy, ya’ni yozma til tarixining ilk bosqichidir, chunki turkiy yozma adabiy til ana shu kezda yuzaga kelgan. Bu davr to‘g‘risida so‘z ketganda unga yozma adabiy til atamasini qo‘shib ishlatishimiz ma’qul. Keng e’tirof etilishicha, “Qadimgi turkiy yozma adabiy til” davri VI-X yuzyilliklarni qamraydi. Turkiy tilning eng ko‘hna yozuv yodgorliklari o‘sha chog‘lardan qolgan. Bu davr quyidagi bosqichlarga bo‘linadi: 1) ko‘k turk yozma yodgorliklari tili(bu guruhga birinchi va ikkinchi turk xoqonliklari davrida yaratilgan ko‘k turk yozuvli urxun va yenisey, tuva, talas, farg‘ona yodgorliklarining tili kiradi); 2) uyg‘ur xoqonligi va davlatlarida yaratilgan ko‘k turk, uyg‘ur, money, brahma, sug‘d yozuvlaridagi yozma yodgorliklar tili (tilshunoslik asarlarida “qadimgi uyg‘ur tili” deb ham atalgan).

XI asrdan eski turkiy adabiy tildavri boshlanadi. Bu bosqich XIV yuzyilliklarning boshlariga qadar davom etgan. Muhimi shundaki, bu davrning ilk bosqichlarida, xususan, qoraxoniylar davrida yaratilgan yozma yodgorliklar tili “qadimgi turkiy til” davrida yaratilgan bitiklar tiliga juda yaqin, ularda qadimgi yozma til an’analari davom etgan . Eski turkey adabiy til davri quyidagi bosqichlarni birlashtiradi: 1) Qoraxoniylar davri tili (Qoraxoniylar davrida yaratilgan yozma yodgorliklar tili); 2) “Chig‘atoy turkiysi”; 3) Eski xorazm turkiysi( Oltin O‘rda va Xorazm muhitida amal qilgan adabiy til); 4)Eski qipchoq tili (Misrda yozilgan garmmatik asrlar va lug‘atlar hamda g‘arbiy turk o‘lkalarida qipchoqlar yaratgan asarlar tili); 5) Eski anato‘li turkchasi (bu XIII-XV asrlarda o‘g‘uz turklari qo‘llagan yozma adabiy tildir. Keyinchalik buning negizida usmonli turkchasi otini olgan adabiy til yuzaga keldi);

Eski o‘zbek adabiy tili (XIV asrdan XX yuzyiliklarga). Bu davrda ham “chig‘atoy turkiysi” davom etdi. XIII-XVI asrlarning adabiy tili “chig‘atoy turkiysi” oti bilan yuritiladi. Bu davr eski o‘zbek adabiy tilining eng yashnagan davridir. O‘sha yuksalishning ta’siri va an’analari XX yuzyillikning boshlariga qadar keldi. Hozirgi o‘zek adabiy tili. Bu davr XX asrning boshlaridan to shu kungacha amal qilmoqda .

Turkiy tillarni davrlashtirishda Nasimxon Rahmonov va Qosimjon Sodiqovlarning “O‘zbek tili tarixi” kitobida yozlishicha: “turkiy tillarni davrlashtirish to‘g‘risida so‘z ketganda, turkologlar turkiy tillarning ildizini Oltoy davridan boshlaydilar va turkiy tillarning asosi aynan oltoy davriga borib taqalishini aytadilar . Oltoy davridagi turkiy tillarning xususiyatlarini ko‘rsatadigan yozma matnlar bo‘lmagani uchun mavjud turkiy hamda ularga qardosh tillarga tayangan holda xulosalar chiqarilgan va hozir ham shunday. Shuningdek, turkey tillar, jumladan, o‘zbek tili tarixini fonetik o‘zgarishga asoslangan holda davrlashtirish ham bor. Jumladan, S. Y. Malov xuddi shunday davrlashtirish tarafdori va u aynan qadimgi turkey yozma yodgorliklar mavjud bo‘lgan davrdan boshlaydi. Bu esa quyidagicha:

1-bosqich. Turkiy tillarning d lashish davri. Bu bosqichda so‘z oxirida va o‘rtasida hozirgi j tovushi d tarzida talaffuz qilinadi. Bu til xususiyatlarining turkiy-run va eski uyg‘ur-turk yozuvidagi yodgorliklar o‘zida ifoda etadi.

2-bosqich. O‘tuvchi davr. Bu davrda birinchi bosqichdagi d tovushi j ga o‘tadi: qadin > qajin, adaq > ajaq, kedin > kejin.

3-bosqich. Til butunlay j lashishga o‘tadi. Bu bosqichda adabiy tilga g‘arbiy (o‘g‘uz) guruhi tillarining ta’siri kuchayadi .

Turkiy tillarni davrlashtirish borasida A.N. Baskakovning tasnifi ma’lum darajada turkiy tillar taraqqiyotini qamrab olishiga urinish bo‘lgan edi. Uning tasnifi quyidagicha: 1. Oltoy davri. 2. Xun davri (mil. avv. V asrdan milodiy V asrgacha) 3.Qadimgi turk davri ( V-X asrlar). 4. O‘rta turk davri (X-XV asrlar).

## ***Modern education and development***

---

5. Yangi turk davri(XV-XX asrlargacha). 6. Eng yangi davr (XX asr boshlaridan bugungacha). Qadimdan bizgacha yetib kelgan “Qutadg‘u bilik”, “Devoni lug‘oti-t-turk”, “Hibat ul-haqoyiq” kabi asarlar leksik, fonetik va grammatik qurilishlarini qadimgi turkiy yodgorliklar bilan keskin farq qilmasligini inobatga olgan holda quyidagicha davrlashtirishni ma’qul deb bilishadi:

- 1.Oltoy davri;
- 2.Skif davri (qadimgi davrlardan mil. avv. V asrgacha);
3. Xun davri (mill. Avv. V asrdan milodiy V asrgacha);
- 4.Qadimgi turk davri (VI-XI asrlar);
- 5.O‘rta turk davri (XII-XV asrlar);
- 6.Yangi turk davri (X-XX asrgacha);
7. Eng yangi davr (XX asr boshlaridan bugungacha) ;

A.N. Samoylovich o‘zbek adabiy tilining tarixini uch davrga bo‘ladi:

1. Qoraxoniylar davri adabiy tili (X-XI).

Bu davr koraxoniylar davlatida shakllangan va keng qullangan sharqiy turkiy adabiy til va shu tilda yoziladigan asarlar bilan ajralib to`radi.

2. O‘g‘iz- qipchoq adabiy tili (XII-XX asrlar). Bu davr Xorazmda o‘g‘iz-qipchoq dialekti negizida rivojlangan g‘arbiy turkiy adabiy til hamda bu erda yaratilgan asarlar bilan bog‘langan.

3. O‘rta Osiyo turkiy adabiy tili (XIV-XX asrlar). Bu davr tili shu aslar davomida turkiy- eski o‘zbek adabiy tilida yaratilgan asarlar bilan bog‘langan.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili esa O‘rta Osiyo turkiy adabiy tilining davomi deb qaraladi.

A.M.Shcherbak o‘zbek adabiy tili tarixini to‘rt davrda bo‘lib o‘rganadi:

## ***Modern education and development***

---

1. O‘zbek adabiy tilining eng qadimgi davri (X-XIII asrlar).

Bu davr asosan sharqiy turkiy adabiy til hamda ma‘lum darajada g‘arbiy turkiy adabiy til bilan bog‘langan.

2. O‘zbek adabiy tilining o‘rta –«Chig‘atoy» tili davri (XIV-XVII asrlar).

Bu davr tili asosan eski o‘zbek adabiy tili hamda shu tilda yozilgan asarlar bilan bog‘langan.

3. O‘zbek adabiy tilining yangi davri (XVII-XYIII asrlar). Bu davr xonliklar davri adabiy tillini qamrab oladi.

4. O‘zbek adabiy tilining eng yangi davri(XIX-XX asrlar).

O.Usmonov o‘zbek adabiy tilining tarixini besh davrga bo‘ladi:

1. Qadigi turkiy tili davri (VI-IX asrlar)

2. Qadigi o‘zbek tili davri (IX-XIIasrlar)

3. Eski o‘zbek tilining ilk davri.(XIII-XIV asrlar)

4. Eski o‘zbek tili (XIV-XIX asrlar)

5. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili.

G.Abduraxmonov o‘zbek adabiy tili tarixini quydagicha davrlashtiradi.

I. Eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha bo‘lgan davr).

II. Qadimgi turkiy til (VII-XI asrlar)

III. Eski turkiy til (XI-XIII asrlar)

IV. Eski o‘zbek adabiy tili.(XIV-XIX asrlar)

V.Yangi o‘zbek adabiy tili (XIX-XX asrlar)

VI. Hozirgi zamon adabiy tili.

Turkiy tillarning tasnifi XI asrda M. Qoshg‘ariy tomonidan berilgan bo‘lsa ham XIX asrgacha bu tillarning mukammal tasnifi yaratilmagan edi. XIX asrdan boshlab turkiy tillarni rus olimlari tasnif qila boshladilar. Bulardan ayrimlari:

I. V. V. Radlov turkiy tillari to‘rt guruhga bo‘ladi:

1. SHarqiy guruh (Sibir tatarlari tili).
2. G‘arbiy guruh (qirg‘iz, qozoq, boshqird, tatar tillari).
3. O‘rta Osiyo guruhi (o‘zbek, uyg‘ur tillari).
4. Janubiy guruh (turkman, ozarbayjon, turk, qrim tatar tillari) .

O‘zbek tilini davrlashtirish, turk (o‘zbek) tilining grammatik qurilishi, fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari masalasida o‘zbek tilshunosligida A.Nurmonov, A.Rafiyev, A.Muxtarov, U.Sanaqulov va K.Yusupov kabi olimlarning tadqiqotlari diqqatga molikdir. Davrlashtirish uchun o‘zbek tili va unga urug‘dosh turkiy tillarning kelib chiqishi, taraqqiyoti bosqichlari, o‘zaro munosabatlarini o‘rganish va tasniflash zarur. Turkiy tillar uch guruhga bo‘linadi: 1) sharqiy guruh (oltoy va cho‘lim tillari) 2)g‘arbiy guruh (sibir tatarlari, boshqird, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoqlar) 3)O‘rta Osiyoguruhi( uyg‘ur va o‘zbek tillari) 4) Janubiy guruh (turkman tillari, ozarboyjon, turk tillari). Mana shu davrlashtirish asosida turkiy tillarning rivojlanish tarixini uch davrga bo‘linadi:

1. Turkiy tillarning -d lash davri. Bu hodisa qadimgi runiy va uyg‘ur yozuviga yodgorliklari uchun xos xususiyatdir. So‘z o,,rtasi va oxirida - y tovushi (d) tarzida aytildi: adaq (ayoq), adir (ayir), qod (qo‘y) kabi.
2. O‘tkinchi davr. Bu davrda turkiy tillar (d) lash hodisasidan (y) lashga o‘ta boshlaydi: kidim- kiyim, kedin-keyin, adir-ayir kabi.
3. Turkiy tillarning (y) lash davri. Bu davrda turkiy tillarning tabaqalanishi va ajralib chiqishi kuchayadi, alohida xalq tillarining tashkil topishiga zamin tayyorlandi. Turkiy tillarning rivojlanish tarixi quyidagi davrlarga bo‘linadi:

a)Oltoy davri (milodgacha 3-asrlar). Turkiy tillar taraqqiyotining eng qadimgi ilk bosqichi bo‘lib, bu davrning muayyan sanalari fan tamonidan aniqlangan emas.

1. Xun davri(milodiy 5- asrgacha)    4.Yangi turk davri(15-19 asrlargacha).
2. Qadimgi turk davri (5-10 asrlargacha)    5. Eng yangi davr(19-20 asrlar).
3. O‘rta turk davri (10-15 asrlar).

O‘zbek tili tarixini davrlashtirish uch davrga bo‘linadi va o‘rganiladi.

- 1.Uyg‘ur adabiy tili.
2. Chig,,atoy adabiy tili.

3.O‘zbek adabiy tili. Bu davrlashtirishga ko‘ra hozirgi o‘zbek adabiy tili chig‘atoy adabiy tilidan kelib chiqqan. Chig‘atoy adabiy tili esa o‘z navbatida uyg‘ur adabiy ta’sirida shakllangan .

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘zbek tilini hozirgi vaqtgacha bo‘lgan davrlarini har bir olim o‘z izlanishlari natijasida aytganini ko‘ramiz.

### **ADABIYOTLAR**

1. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent-2020. 6-bet
2. Qosimjon Sodiqov “Turkiy til tarixi”. Toshkent 2009. 6-bet
3. Н.А. Баскаков. Введение в изучение тюркских языков.-М.: “Высшая школа”, 1969, 147-148-betlar;
4. Ahmed Jaferoglu. TÜrk dili tarihi, Istanbul, 1984, 51-bet
5. Nasimxon Rahmonov va Qosimjon Sodiqov. “O‘zbek tili tarixi”. T.:2009 16-bet
6. Shahzod Rahmatjonov “O‘zbek adabiy tilini davrlashtirish, o‘rta asrlar o‘zbek tilining qurilishi, umumiy qoidalar tahlili” maqolasi.
7. Azkurs.org.uz